

**BALIQCCHI TUMANI AHOLISINING YOSH TARKIBI VA MEHNAT  
RESURSLARINING IQTISODIYOT TARMOQLARIDAGI BANDLIGI VA  
ISHSIZLIK DARAJASI TAHLILI**

*Sarikulov Mirkomil Olimovich*  
*ADPI "Tabiiy fanlar" kafedrasi o`qituvchisi*

*Olimova Gulsanam*  
*ADPI "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari"*  
*yo`nalishi I-bosqich o`quvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Baliqchi tumani mehnat resurslarining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish haqida tahliliy fikrlar va takliflar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** mehnat resurslari, bandlik, aholi, iqtisodiy faol aholi, makroiqtisodiyot, ishsizlik, norasmiy sektor, sanoat, qishloq xoʻjaligi.


**Аннотация:** В данной статье одним из эффективных механизмов обеспечения разумной занятости трудовых ресурсов Балыкчинского района и снижения уровня безработицы является формирование и развитие рынка труда и его регулирование.

**Ключевые слова:** трудовые ресурсы, занятость, население, экономически активное население, макроэкономика, безработица, неформальный сектор, промышленность, сельское хозяйство.

**Annotation:** In this article, one of the effective mechanisms for ensuring reasonable employment of labor resources of Baliqchi district and reducing unemployment is the formation and development of the labor market and its regulation.

**Key words:** labor resources, employment, population, economically active population, macroeconomics, unemployment, informal sector, industry, agriculture.

## Балиқчи туман схематик ХАРИТАСИ



**Kirish:** Mehnat resurslari aholining o‘z ruhiy fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko‘rsatishga qodir bo‘lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotganlar ham kiritiladi. Demak, mehnat resurslari haqiqiy (real) va potensial xodimlardir.

Aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u mehnat masalalari bilan bog‘liq muammolarni hamda mehnatga bo‘lgan taklif va talablarni qondirish yo‘llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat’i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o‘zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan

bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning hisobot va prognoz balanslari, ularning savodxonlik va darajalari asosan quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqiladi:

- aholi bandligini, birinchi navbatda, yoshlarni va mehnatga layoqat yoshiga yetgan va birinchi marotaba mehnat bozoriga kirib kelayotganlar bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari tashkil etish parametrlarini aniqlash;
- mehnat bozori talab va taklifi balansi va tuzilmasidagi nomutanosiblikni baholash;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda mehnat bozori istiqbolini aniqlash;
- ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlash miqdorini aniqlash.

**Asosiy qism:** Baliqchi tumanida 2022 yil 1-dekabr holatiga 207075 nafar aholi istiqomat qiladi. Shundan jinsiy tarkibi bo'yicha erkaklar 105575 kishi, ayollar esa 101500 kishini tashkil etadi. Tumanda aholi 66 ta MFY ga birlashtirilgan bo'lib, oilalar soni 51419 tani, xonadonlar soni esa 37123 tani tashkil etadi. Baliqchi tumanida aholining yosh tarkibi quyidagi jadvalda aks ettirilgan. **(1-jadval)**

<b>Yosh tarkibi</b>	<b>Umumiy soni</b>	<b>Shundan erkaklar</b>	<b>Shundan ayollar</b>
<b>1-7 yosh</b>	29542	13883	15659
<b>8-16 yosh</b>	38813	20101	18712
<b>17-23 yosh</b>	50898	26132	24766
<b>24-30 yosh</b>	20459	11659	8800
<b>30-60 yosh</b>	24485	12634	11851
<b>60-80 yosh</b>	20422	10567	9855
<b>81-100 yosh</b>	22456	10599	11857
<b>Jami</b>	<b>207075</b>	<b>105575</b>	<b>101500</b>


Tumanda hozirgi kunda mehnat resurslarining umumiy soni 110872 kishini tashkil etadi. Mehnat resurslarining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ulushi ham turlicha bo`lib, shundan iqtisodiy faol aholi 90112 nafar, mehnat yoshidan o'tgan bo'lsa-da ishlayotgan shaxslar yoki pensionerlar 115000 nafar, yosh bo'lsa ham ishlayotgan o'smirlar soni esa 28000 nafarni tashkil etadi. Mehnat resurslarining bandlik darajasini quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin. (2-jadval)

**Мехнат ва бандлик кўрсаткичлари (минг киши)**

<b>Мехнат resurslari soni</b>	-	110872
<b>Iqtisodiy faol aholi soni</b>	-	90112
<b>Ishlayotgan o`smirlar soni</b>	-	28
<b>Ishlayotgan nafaqaho`rlar soni</b>	-	115
<b>Band aholi soni</b>	-	81230
- rasmiy sektorda	-	32275
- norasmiy sektorda	-	49324
- ishlash uchun respublikadan tashqariga chiqqanlar	-	23812
<i>shundan</i> , rasmiy	-	5
norasmiy	-	17,8

**Jami band aholining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi** (ming kishi)

<b>Jami:</b>		81,2
- qishloq xo'jaligida	-	23,7
- o'rmon xo'jaligida	-	-
- sanoatda	-	9,9
- qurilishda	-	5,4
- savdoda	-	10,2
- tashish va saqlashda	-	3,0
- ta'limda	-	6,7
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda	-	3,7
- boshqalarda	-	18,6
<b>Kichik biznesda band aholi soni</b>	-	<b>8,631</b>
- jami ulushi (%)	-	7,75
<b>2022 yilda yaratilgan yangi ish o'rinlari soni</b>	-	2701
- shu jumladan, kichik biznes hisobiga	-	976
<b>Ishga muhtojlar (ishsizlar)</b>	-	8882
<b>Ishsizlik darajasi (%)</b>	-	9,9
<b>Bandlikka ko'maklashish markaziga ish so'rab murojaat qilganlar soni</b>	-	<b>5094</b>



**Xulosa:** Demak, yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bandlik va mehnat bozori bir butun makroiqtisodiy tizimning bir-birini taqozo etuvchi elementlaridir. Fikrimizcha, mehnat bozorini tashkil etuvchi elementlarni ta’riflashga bo’lgan shunday yondashish mehnat bozorini har tomonlama o’rganish va unda kechadigan jarayonlarni bashorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Baliqchi tumani ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan viloyatda o’ziga xos o’ringa ega bo’lgan tuman bo’lishiga qaramasdan bu tumanda xam bartaraf qilish lozim bo’lgan muammolar yo’q emas va bu muammolar yuqorida aytilganidek, asosan aholining yashash sharoitiga bevosita ta’sir qiluvchi ijtimoiy sohalarda o’z aksini topmoqda. Ma’lumki, mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi hozirgi yosh avlodni sog’lom, baquvvat va ilmi bo’lishiga bog’likdir. Chunki, yoshlarimiz ertangi kunning bunyodkor kuchi, qurilajak fuqarolik jamiyatining faol a’zovidir. Baliqchi tumani makroiqtisodiyotni mehnat resurslari bilan ortiq darajada ta’minlash darajasi mavjudki, bu ish joylari bilan ishchi kuchi o’rtasidagi nomutanosiblikka olib keladi. Jumladan kelgusida dolzarb muammolardan biri tumanda bo’sh ish o’rinlari yaratish va yoshlarga zamonaviy turdagi kasblarga o’qitish masalasiga jiddiy yondashish talab etadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. SH.Mirziyoev. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan.
2. Genkin B.M. “Ekonomika i sotsiologiya truda”. Uchebnik dlya vuzov.- M.:Izdatel’skaya gruppа NORMA-INFRA. M, 1999 g.-3-str.
3. Карташов С.А., Ю.Г.Одегов. Рынок труда, проблемы формирования и управления. Москва. ЗАО.”Финстатинформ”-1998 г. 6-7-стр
4. Bo’rieva M.R., Tojievа Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
5. Qayumov A va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi T.2011.